



INGLIZ BA O'ZBEK TILLARIDA GUL KONSEPTLI PAREMOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLARI

Abdullayeva Dilchehra Panjiyevna
Abdunabiyeva Nozima G'ulomjon qizi

Termiz davlat universiteti filologiya tillarni o'qitish: ingliz tili 4-kurs talabasi

Annotatsiya : Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida gul konsepti bilan bog'liq paremiologik birliklar lingvomadaniy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu birliklarning ramziy mazmuni, milliy tafakkur bilan aloqasi hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, paremiologiya, gul, semantika, qiyosiy tilshunoslik.

KIRISH

Til- xalqning tarixiy tajribasi, ma'daniyati, dunyoqarashi, va milliy mentalitetining eng asosiy ifodasi ham hisoblanadi. Tilimizdagi frazeologik qatlamning muhim tarkibiy qismi bo'lgan paremiologik birliklar, maqolalar, matallar, aforizimlar, topishmoqlar va boshqa hikmatli iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan tafakkur mahsulidir.

Ular nafaqat badiiy- estetika ahamiyatga ega, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotidagi voqeiliklarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Paremiologik birliklar tilshunoshlikdagi ko'plab ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etilib kelinadi, chunki, ular tilning leksik boyligini, semantic tizimini, milliy- ma'daniylik kodini anglashda muhim manbasi sifatida xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklarni, xususan, topishmoqlar va aforizmlarni o'rganish jarayonida ularning shakl, mazmun va funksional xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki har bir tildagi bunday birliklar xalqning turmush tarzi, an'analari, tarixiy jarayonlari va hayot falsafasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, topishmoqlar xalqning ijodiy tafakkur mahsuli bo'lib, ular orqali voqelikni obrazli tasvirlash, tafakkurni charxlash va ma'lumotni ramziy shaaklda yetkazish amalga oshiriladi.

Aforizmlar esa qisqa, lo'nda va teran ma'noli jumlar bo'lib, umumlashgan hayotiy tajriba va falsafiy fikr larni ifodalaydi. Tillarda konseptli bilan bog'liq paremiologik birliklar o'zbek xalqining og'zaki nutqida qadimdan faol qo'llanilib kelinadi.

Ular xalq donishmandligi, estetik qarashlari, mehnatga munosabati va ijtimoiy- madaniy qadriyatlarini ifoda etishda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Bu turdagi birliklar kundalik muloqotda odatda tarbiyaviy, tanqidiy yoki ma'naviy-estetik baho berish maqsadida ishlatiladi uchun ishlatiladi.

Paremiologik birliklar orqali shaxsiy estetik qarashlar, ishonchlilik, aniqlik, mehnatga e'tibor kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Bundan tashqari, bugungi kunda OAV – ayniqsa, jurnalistika, reklama va ijtimoiy tarmoqdagi kontentlarda ham konseptli so'zlarning paremiologik birliklar stilistik vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Masalan Ba'zan ingliz tilidagi gul ishtirok etgan maqol o'zbek tilida mutlaqo boshqa obraz (masalan, hayvon yoki kundalik buyum) orqali berilishi mumkin.



Ingliz va o'zbek tillarida gul konseptiga oid paremiologik birliklarning (maqol, matal, ibora) leksik-semantik muammolari asosan madaniy tafovutlar, o'xshatish obektlarining turlichaligi va tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalalari bilan bog'liq.

Gullar inson madaniyati va tilida uzoq tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan simbolik obyektlardan biridir. Ingliz va o'zbek tillarida gul konsepti leksik-semantik jihatdan turli ifodalarda namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, gul konseptli paremiologik birliklar (metaforik va frazeologik iboralar) tahlili tilshunoslikda muhim o'rin tutadi.

Gullar konsepti bilan bog'liq paremiologik birliklar tahlilida quyidagi leksik-semantik muammolar uchraydi: sinonimik qiyinchiliklar, polisemik lug'at ma'nolari, metafora va frazeologik birliklarning madaniy konteksti.

1. Ingliz tilida gul konsepti

Ingliz tilida gul konsepti ko'pincha metafora va idiomalar orqali ifodalanadi. Masalan, "to nip in the bud" (dastlabki bosqichda to'xtatmoq) iborasi gulning biologik rivojlanishi bilan bog'langan. Shuningdek, "a wallflower" (e'tiborsiz odam) frazeologizmi gulning joylashuvi va xarakteriga asoslangan.

Bunday iboralarda asosiy muammo – leksik polisemikani aniqlash va kontekst bilan moslashtirish. Shuningdek, ingliz tilidagi ba'zi iboralar madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, tarjimada semantik yo'qotishlar yuzaga kelishi mumkin.

2. O'zbek tilida gul konsepti

O'zbek tilida gul konsepti ko'proq she'riy va prozaik ifodalarda uchraydi. Masalan, "gul ochmoq" iborasi ish, harakat yoki rivojlanishni ifodalaydi. "Guldek bo'lmoq" esa insonning tashqi go'zalligi yoki odobini bildiradi.

O'zbek tilida ham semantik muammolar mavjud: ba'zi iboralar metaforik bo'lsa-da, ularni ingliz tiliga bevosita tarjima qilish qiyin. Bu tilning madaniy va kontekstual xususiyatlari bilan bog'liq.

3. Leksik-semantik muammolarni taqqoslash

Ingliz va o'zbek tillaridagi gul konsepti iboralarini taqqoslaganda bir qator muammolar aniqlanadi:

Sinonimiya va polisemikani aniqlash – bir ibora bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Metaforik o'xshashlik va madaniy kontekst – ba'zi metaforalar madaniyatga xos bo'lib, boshqa tilga o'tkazishda yo'qotish yuz beradi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish – idiomatik birliklarni boshqa tilga moslashtirish qiyin.

Emotsional va stilistik komponent – ba'zi iboralarining ohangi va emotsional ta'siri boshqa tilga o'tkazilganda o'zgaradi.

Shu bilan birga, gul konsepti iboralari til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi.

1. Leksik-semantik xususiyatlar va ramziylik

Har ikki tilda ham gullar inson tuyg'ulari va go'zallik ramzi sifatida qo'llanilsa-da, muayyan turlar turli ma'nolarni anglatadi:



• Ingliz tilida: "Rose" (atirgul) ko'pincha muhabbat va go'zallikdan tashqari, qiyinchilik ramzi (tikani bilan) sifatida ham keladi (masalan, "No rose without a thorn" — "Tikansiz gul bo'lmas"). Shuningdek, "Lily" (liliya) soflik, "Poppy" (ko'knori) esa xotira ramzi hisoblanadi.

• O'zbek tilida: "Lola" go'zallik va ba'zan g'am-alamni, "Atirgul" esa nafosatni ifodalaydi. O'zbek paremiologiyasida "gul" so'zi ko'pincha umumiy ma'noda yaxshilik, yoshlik yoki farovonlikni anglatish uchun ishlatiladi.

2. Tarjima va ekvivalentlik muammolari

Paremiologik birliklarni bir tildan ikkinchisiga o'girishda quyidagi muammolar yuzaga keladi:

• Shakliy va dinamik ekvivalentlik: Ba'zan ingliz tilidagi gul ishtirok etgan maqol o'zbek tilida mutlaqo boshqa obraz (masalan, hayvon yoki kundalik buyum) orqali berilishi mumkin.

• Madaniy lakunalar: Masalan, inglizcha "To gather life's roses" iborasining o'zbekcha muqobili sifatida "hayot gashtini surmoq" ishlatilsa-da, leksik darajada "gul" so'zi saqlanib qolmasligi mumkin.

3. Strukturaviy va etimologik farqlar

• Etimologiya: Ingliz tilidagi gul nomlari ko'pincha lotin va grek tillaridan o'zlashgan bo'lsa, o'zbek tilidagilar turkiy, forsiy va arabiy ildizlarga ega.

• Leksik tarkib: O'zbek tilida gullar bilan bog'liq birikmalarda "-gul" suffiksi faol qo'llanilib, yangi ma'no qatlamlarini hosil qiladi (masalan, "atirgul", "tonggul"). Ingliz tilida esa ko'pincha murakkab so'zlar (masalan, "sunflower", "snowdrop") orqali leksik birliklar shakllanadi.

Shuningdek, tarjimonning til va madaniyatlararo bilim darajasi muammolar yechimida muhim o'rin tutishi ko'rsatiladi. Ish badiiy asar tarjimasida mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlash yo'llarini ham ochib beradi. Leksik muammolar-matnlarni yoki adabiy asarlarni boshqa tilga o'girish jarayonida so'z yoki iboralar darajasida yuzaga keladigan qiyinchiliklardir.

Badiiy tarjimada bu kabi muammolar juda muhim ahamiyat kasb etadi, sababi badiiy matn bu shunchaki axborot hisoblanmaydi, balki bu muallifning o'ziga xos uslubi, his-tuyg'ulari va shu bilan birgalikda madaniy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bu ish juda mas'uliyatli bo'lib, tarjimondan so'zlarning to'g'ri ma'nosini, madaniy kontekstini va stilistik tusidan ham xabardor bo'lishini talab qiladili.

Quyida endi biz leksik muamolarning turlari haqida fikr yuritamiz.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan juda ko'plab leksik muammolar bor va mana shulardan biri Polisemiya deb ataladi. Polisemiya(ko'p ma'nolilik) bu bir so'zning bir nechta yoki undan ko'p ma'nosi bo'lishidir va shu vaziyatda tarjimon matn mazmuniga mos so'zni tanlashi kerak bo'ladi va bu ham muammoga sabab bo'lishi mumkin¹⁶.

¹⁶ Vinogradov, V. V. Problemy perevoda. Moskva: Nauka, 1973, P. 45--6



Misol tariqasida shuni keltirib o'tishim mumkinki, ingliz tilidagi "light" so'zi bunga yaxshi misol bo'la oladi, chunki u yorug'lik, va yengil deb tarjima qilinadi. Bunda ijodkor kontekstga qaysi ma'noda mos kelishiga qarab tanlashi zarur.

Formal ekvivalentlikda tarjima qilinayotgan matnning ham shakl jihatdan ham Grammatik jihatdan tuzilishini imkon qadar saqlashga harakat qilinadi. Dinamik ekvivalentlikda esa maqsad o'quvchiga asl nusxadagi voqea va hodisalar qanday ta'sir etsa tarjima qilingan shakli ham shunday ta'sir qilinishi kerak bo'ladi.

Bundan tashqari denotativ ekvivalentlikda matn ham lug'aviy ham to'g'ridan-to'g'ri mos kelishi kerak. Konnotativ turida esa qilinayotgan tarjimada so'zlar emotsional va stilistik xilma-xilligi jihatidan bir-biriga mos kelishi kerak.

Ohirgi turlaridan biri bu tekstual turidir va bunda maqsad, matnda umumiy kommunikativlikni va uslubni saqlab qolishga harakat qilishdan iboratdir¹⁷. Shunday qilib ekvivalentlik muammosi ham tarjima jarayonida juda ko'p uchraydigan masalalardan biri hisoblanadi va bu holat ijodkordan kata tajriba va mehnat talab qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki bu masalalar tarjima jarayonida aynan yuqorida keltirib o'tilgan muvofiqlikni saqlash ko'plab qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin deb o'ylayman. Mening fikrimcha bu muammolarning sabablari turlichadir. Masalan bunga mahalliy tafovutlar sabab bo'lishi mumkin.

Chunki ba'zi xalqlarda ba'zi so'zlarning va iboralarning boshqa bir mamlakat madaniyatida mavjud bo'lmasligi ham mumkindir. Tarjima jarayonida kelib chiqadigan muammolardan yana biri bu Frazologik birliklar muammosidir va bu matnni boshqa tilga o'girishda murakkablik tug'diradi. Shu o'rinda bu muammo haqida batafsil ma'lumot berib, mavzuni yoritib bermoqchiman. Frazologik muammo bu yaxlit ibora sifatida ishlatiladigan turg'un birikma bo'lib, ularning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqmaydi.

Frazologik birliklarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mumkin emas chunki ularning ko'pchiligi o'ziga xos majoziy ma'noga ega bo'ladi, ularni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish noto'g'ri yoki kulguli bo'lishi mumkin. Misol sifatida shuni keltirib o'tishim mumkinki, ingliz tilidagi "spill the beans" iborasi "fasol to'kmoq emas" balki "sirni oshkor qilmoq" deb tarjima qilinishi kerak¹⁸. Agar biz shu so'z birikmasini so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak ma'no ummuman chiqmaydi va noto'g'ri tarjima hisoblanadi.

O'z o'rnida bu juda ko'plab muammolarga sabab bo'lishi mumkin, sababi matnni o'qiyotgan o'quvchi ham mazmunni yaxshi tushunolmaydiva bu qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, kontekstga bog'liq tafovutlar ham muammo tug'dirishi mumkin. Ba'zi frazeologik birliklar faqatgina ma'lum bir kontekstda ishlatiladi. tarjimon kontekstni to'g'ri tushunmasa, iboraning ma'nosini noto'g'ri anglab, bu xato tarjimaga olib keladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlashim kerakki, har bir xalqning madaniyatiga mos turg'un iboralar mavjud bo'lib, ularning boshqa til va madaniyatda to'g'ridan-to'g'ri mos keluvchi shakli bo'lmasligi ham mumkin.

¹⁷ Jakobson, Roman. "On Translation", ed. Reuben A. Brower, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959

¹⁸ Kunnuzova, M.R.. Tarjimada frazeologizmlarni ekvivalentlash muammolari. Toshkent, 2019: O'ZMU nashriyoti. B.31.



Shuning uchun ham bu masala biroz murakkab va mas'uliyatlidir. Shuning uchun ham frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ba'zi bir strategiya va yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularidan biri esa ekvivalent frazeologizm bilan almashtirishdir. Bunda ma'nodosh frazeologizmi tanlab, milliy ohangni saqlash kerak bo'ladi. Misol sifatida keltiradigan bo'lsam, inglizlarda keng qo'llaniladigan iboralardan biri "He kicked the bucket"dir¹⁹. Bunda tarjima qilish jarayonida "U chelakni tepdi" deb tarjima qilinmaydi.

Balki "U olamdan o'tdi" deyiladi. Shuning uchun ham ijodkor ehtiyotkor bo'lishi darkor. Yana boshqa yondashuvlardan biri bu ma'nodosh oddir ibora bilan ifodalashdir. Bunda frazeologik birlikning umumiy ma'nosi tarjima qilinib, ma'no saqlab qolinadi. Masalan: "Break the ice"-"Suhbatni boshlab yuborish" deganidir. Bunda "Muzni sindirish" deb so'zma-so'z tarjima qilish xato hisoblanadi. Tarjima jarayonida uchraydigan yana bir leksik muammolardan biri bu realiyalar va madaniy birliklar muammosi hisoblanadi.

Boshqa bir mamlakat madaniyatida mavjud bo'lmagan faqatgina bir tilga xos bo'lgan atamalar ya'ni realiyalar tarjima qilinayotganda tarjimon ularni tushuntirishi, izohli tarjima yoki ekvivalent qidirishi kerak bo'ladi.

Sababi boshqa madaniyatda ma'lum bir so'zlar, tushunchalar, buyum yoki ijtimoiy hodisalarning bevosita ekvivalenti mavjud emas. Misol sifatida shuni keltirishim mumkinki o'zbek tilida uchraydigan samovar, pilaf, yurt kabi so'zlar ingliz tilida mavjud bo'lmashligi mumkin va bunday vaziyatda ijodkor ingliz tilida izoh bilan berishiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari boshqa misollarni na'muna sifatida keltirsam, o'zbeklarda kiyadigan milliy kiyimlari, masalan chapan yoki kimono boshqa yevropa madaniyatlarida mavjud emas, va shunday vaziyatda ijodkor tarjima qilayotgan asar matniga izoh sifatida tushuntirib o'tishiga to'g'ri keladi. Chunki shunday asarlarni o'qiyotgan madaniyatda bu birliklar tushunmovchilik yoki noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi gul konseptli paremiyologik birliklar lingvistik va ma'daniy jihatdan murakkab tizimni tashkil qiladi.

Ularning leksik-semantik, sintaktik va funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali tarjima qiyinchiliklarini aniqlash, metaforik va frazeologik birliklarni kontekstual ma'nolarini tushunish mumkin.

Shu bilan birga, tilshunoslik va tarjima amaliyoti uchun muhim tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English : A Methodology for Translation. Amsterdam John Benjamins Publishing, --1995. P.36-39.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall 1988 --P.88.

¹⁹ Komissarov, V.N. Theory of Translation. Moscow : Vyssaja Shkola, 1990. --P.37



3. Komissarov, V.N. Theory of Translation. Moscow : Vyssaja Shkola, 1990. --P.37.
4. Kunnuzova, M.R. Tarjimada frazeologizmlarni ekvivalentlash muammolari. Toshkent, 2019: O'ZMU. nashriyoti. B.34-35.
5. Farajova, U.A. "Affixation: A Productive Way of Word Formation ." Research in Multidisciplinary Studies, 2024. --B.2-3.
6. Hojiyev, A. O'zbek tili so'z yasash tizimi. —Toshkent, O'qituvchi, 2007. --B.83-84.
7. Xolmanova, Z. Tilshunoslik nazariyasi. —Toshkent, Nodirabegim., --2020. --B.91-93.
8. Uloqov, N. Tilshunoslik nazariyasi. O'zbek tili so'z yasash tizimi. —Toshkent, O'qituvchi, --2007. --B.100.
9. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. –М.: ЭТС, 2004. –384 с.
10. Umaraliyeva, M.M. O'zbek tili so'z yasash tizimi. —Toshkent, O'qituvchi, 2007. --B.83-84.
11. Badiiy asarlardagi folklorologik birliklarning tarjimasidagi muammolari "ORIENS", 2022. --B.558-563.
12. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. –London: Routledge, 1992. –245 p.
13. Ismoilova, M.M. "Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari" GOLDEN BRAIN, 2023. --B.97-101.
14. Sotiboldiyeva, G.M. "Badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi" O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konfrensiyalari. Toshkent, 2022. --B.63-65.
15. <https://fantasybookcritic.blogspot.com/2017/03/daughter-of-pirate-king-daughter-of.html>.
16. Xurulboyev, S.H.A. Abduvoitov, R.A. "Tarjimada so'z tanlash masalasi va badiiy tarjimadagi muammolar". Eurasian Journal of Academic Research. --2022. –Vol. 1, No.9. --B.334-337. <https://zenodo.org/records>.
17. Ismoilova, M. M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari. GOLDEN BRAIN, 1(9), 2023 --B.98. URL: <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2827>.
18. Rahmonqulova, F.A. Badiiy tarjimada leksik stilistik bo'y qoqdorlik muammolari. Qo'qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnal, 5(1).
19. Abduxoliqova, G. "Badiiy tarjimada semantik moslik va muammolar." Filologiya masalalari. --2021, N (2). --B.51-53.
20. Sotiboldiyeva, G.M. Badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konfrensiyalari. —Toshkent, 2024. --B.64.
21. Ismoilova, M.M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari. GOLDEN BRAIN 1(9), 2023 --B.102.
22. Saidova, N. (2022). Paremiologik birliklarning madaniy kontekstdagi o'rni. Tilshunoslik tadqiqotlari jurnal, 7(1), 88–96
23. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.
24. Cruse, D. A. Meaning in Language. Oxford University Press, 2000.
25. Apresjan, J. D. Regular Polysemy. Linguistics, 1974.
26. Vinogradov, V. V. Russian Phraseology. Moscow, 1960.
27. Soboleva, I. English Idioms and Their Translation. Moscow, 1998.
28. Karimov, A. O'zbek frazeologik birliklari. Tashkent, 2005.



Pym, A. Exploring Translation Theories. Routledge, 2014.

26. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2003.

27. Belyaev, O. Comparative Semantics of Metaphors. Linguistics, 1999.

28. Abdullayev, R. O'zbek tilidagi metaforik birliklar. Tashkent, 2010.